


# Relyativistik astrofizika va gravitatsiya bo'yicha xalqaro onlayn konferensiya bo'lib o'tdi

Avval xabar berganimizdek, 2021-yil 12-14-may kunlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida IWRAG-2021 Relyativistik astrofizika va gravitatsiya bo'yicha xalqaro onlayn konferensiya bo'lib o'tdi. Unda 2016-yilda yaratilgan gravitatsion to'lqinlar astronomiyasi, 2017-yilda paydo bo'lgan ko'p kanalli astronomiya, mamlakatimizda ilk yaratilayotgan rentgen astronomiya, radio astronomiya, yadro astrofizikasi, neytron yulduzlar va qora o'ralar astrofizikasiga tegishli mavzularda 43 ta ma'ruzalar tinglandi hamda muhokama qilindi.



3 kun davom etgan konferensiyada dunyoning 15 dan ortiq mamlakatlardan qatnashgan 100 ga yaqin yetakchi olimlar astrofizika va astronomiyaga tegishli mavzularda o'zaro fikr almashdilar. Plenar ma'ruzalar matnlari Germanianing Shpringer nashriyotidagi jurnalida 21 ta ilmiy maqola sifatida chop etiladi.